“INNOVATSION IQTISODIYOT VA MENEJMENT: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLAR TO‘PLAMI

10.04.2026

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“MENEJMENT” KAFEDRASI

“INNOVATSION IQTISODIYOT VA MENEJMENT: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR”

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI TO‘PLAMI

(10-aprel 2026-y.)

Samarqand - 2026

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

САМАРКАНДСКИЙ ИНСТИТУТ ЭКОНОМИКИ И СЕРВИСА

КАФЕДРА «МЕНЕДЖМЕНТ»

«ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА И МЕНЕДЖМЕНТ: СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ, ВОПРОСЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ»

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ

международной научно-практической конференции

(10-апреля 2026 г.)

Самарканд – 2026

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

SAMARKAND INSTITUTE OF ECONOMICS AND SERVICE

DEPARTMENT OF MANAGEMENT

«INNOVATIVE ECONOMY AND MANAGEMENT: CONTEMPORARY TRENDS, CHALLENGES, AND PROSPECTS»

COLLECTION OF PROCEEDINGS

of the international scientific and practical conference

(10-Apr 2026)

Samarkand – 2026

UO‘K: 330.341.1:005
KBK: 65.011.15
Innovatsion iqtisodiyot va menejment: zamonaviy tendensiyalar, muammolar va istiqbollar // Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2026-yil 10-aprel. Samarqand, SamISI, 2026 – 1370 bet.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:
F.U.Tursunov – SamISI “Menejment” kafedrasi mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

Nashr uchun mas’ullar:
O.M.Pardayev - SamISI, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha rektor o‘rinbosari, iqtisod fanlari doktori, professor
M.T.Alimova – SamISI “Menejment” kafedrasi professori, iqtisod fanlari doktori
Sh.S.Urazov - SamISI “Menejment” kafedrasi, PhD, dotsent v.b.
N.T.Sattorova - SamISI “Menejment” kafedrasi, PhD, dotsent v.b.
Q.S.Maxmudov – SamISI “Menejment” kafedrasi, katta o‘qituvchi

Sahifalovchi:
B.M.Abdumannonov – SamISI “Menejment” kafedrasi assistenti.

Ilmiy – amaliy konferensiya materiallarida “Innovatsion iqtisodiyot va menejment: zamonaviy tendensiyalar, muammolar va istiqbollar”ga oid yo‘nalishlar yoritilgan. To‘plamda:

- Innovatsion menejmentni rivojlantirishning metodologik masalalari;
- Innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish tendensiyalari, xususiyatlari va istiqbollari;
- Ta’limda innovatsiyalar – ta’lim xizmatlari sifati va raqobatbardoshligini oshirishning asosiy dastaklari sifatida;
- Innovatsion iqtisodiyot sharoitida hududlarda raqamli ekotizimni shaklllantirishning strategik yo‘nalishlari;
- Innovatsion klasterlarni milliy iqtisodiyot soha va tarmoqlarida shakllantirishning uslubiy asoslari”ga qaratilgan ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarga boy tezis va maqolalarda o‘z aksini topgan.

Tezis va maqolalar mualliflar tahririda chop etilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

Материалы научно-практической конференции охватывают области «Инновационная экономика и менеджмент: современные тенденции, проблемы и перспективы». В сборник вошли:

- Методологические вопросы развития инновационного менеджмента;
- Тенденции, особенности и перспективы развития сектора услуг в условиях инновационной экономики;

- Инновации в образовании как основные рычаги повышения качества и конкурентоспособности образовательных услуг;

- Стратегические направления формирования цифровой экосистемы в регионах в условиях инновационной экономики;

- Методологические основы формирования инновационных кластеров в секторах и отраслях национальной экономики». Материалы конференции богаты научными, теоретическими и практическими рекомендациями.

Диссертации и статьи публикуются под редакцией авторов. Авторы несут ответственность за представленные в них рисунки, факты, выводы и рекомендации. Некоторые из их мнений могут не совпадать с мнением организационной группы.

The materials of the scientific and practical conference cover the areas of “Innovative economy and management: modern trends, problems and prospects”. The collection includes:

- Methodological issues of developing innovative management;

- Trends, features and prospects of developing the service sector in the conditions of an innovative economy;

- Innovations in education as the main levers for improving the quality and competitiveness of educational services;

- Strategic directions for forming a digital ecosystem in regions in the conditions of an innovative economy;

- Methodological foundations of forming innovation clusters in sectors and industries of the national economy” are reflected in theses and articles rich in scientific, theoretical and practical recommendations.

Theses and articles are published under the editorship of the authors. The authors are responsible for the figures, facts, conclusions and recommendations presented in them. Some of their opinions may not coincide with the views of the organizational group.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.
© “STEP-SEL” MChJ. Nashriyoti, 2026.

Olib borilgan tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda turizm va mehmondo‘stlik sanoati so‘nggi yillarda jadal rivojlanish tendensiyasini namoyon etmoqda. Turizm infratuzilmasini rivojlantirishga kiritilayotgan investitsiyalar hajmining ortishi, turistik xizmatlar bozorining kengayishi va turistlar sonining o‘sishi turizm sohasining milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, turizm sohasida xizmat ko‘rsatish sifati, norasmiy sektor ulushi va institutsional muhit bilan bog‘liq ayrim muammolar ham mavjud. Ushbu muammolarni bartaraf etish turizm sohasida tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish va turistik xizmatlar bozorini modernizatsiya qilish uchun muhim ahamiyatga ega.

Kelgusida turizm sohasini rivojlantirishda investitsiyalarni jalb qilish, xizmatlar sifatini oshirish, turistik infratuzilmani modernizatsiya qilish va raqamli texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cooper C., Fletcher J., Fyall A., Gilbert D., Wanhill S. Tourism: Principles and Practice. – London: Pearson Education, 2008. – 736 p.

2. Page S. Tourism Management: Managing for Change. – Oxford: Butterworth-Heinemann, 2019. – 480 p.

3. Sharpley R., Telfer D. Tourism and Development: Concepts and Issues. – Bristol: Channel View Publications, 2015. – 384 p.

4. Butler R. The Tourism Area Life Cycle: Applications and Modifications. – Clevedon: Channel View Publications, 2006. – 304 p.

5. Tribe J. The Economics of Recreation, Leisure and Tourism. – London: Routledge, 2016. – 420 p.

6. Weaver D., Lawton L. Tourism Management. – Australia: John Wiley & Sons, 2014. – 512 p.

7. Bramwell B., Lane B. Tourism Governance: Critical Perspectives on Governance and Sustainability. – London: Routledge, 2011. – 368 p.

8. World Tourism Organization (UNWTO). International Tourism Highlights. – Madrid: UNWTO, 2023. – 24 p.

Djalilov Rahmonkul Hamidovich - Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti, i.f.f.d. **e-mail:** djalilovraxmonqul@gmail.com ORCID: 0009-0002-1029-1027

RESPUBLIKAMIZDA ALKOGOL MAHSULOTLARINI HISOBGA OLISHDA AKSIZ SOLIG‘I MASALALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada aksiz solig‘i bo‘yicha turli xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarimiz tomonidan bildirilgan takliflar hamda alkogol mahsulotlarini hisobga olishda aksiz solig‘ini hisobga olish mexanizmlariga ta’siri o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlari: *soliq tizimi, soliq nazorati, soliq ma’muriyatchiligi, bilvosita soliqlar, alkogol mahsulotlar, aksiz soliq.*

Аннотация. *В данной статье изучены предложения по акцизному налогу, высказанные различными зарубежными и отечественными*

исследователями, а также их влияние на механизмы учета акцизного налога при учете алкогольной продукции.

Ключевые слова: *налоговая система, налоговый контроль, налоговое администрирование, косвенные налоги, алкогольная продукция, акцизный налог.*

Abstract. *This article examines the proposals made by various foreign and domestic researchers on excise tax, as well as their impact on the mechanisms for accounting for excise tax when accounting for alcoholic products.*

Keywords: *tax system, tax control, tax administration, indirect taxes, alcohol products, excise tax.*

Zamonaviy sharoitda soliq tizimida aksiz solig‘ini takomillashtirishning xususiyatlari va usullarini o‘rganish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda va davlat iqtisodiy siyosati faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u milliy iqtisodiyot moliyaviy resurslarning muhim qismi oqimini ta’minlaydi. Umuman olganda, aksiz solig‘i tizimi murakkab bo‘lib, uni davlat byudjetida hisoblash vazifalari bilan tarixiy aloqalarni shakllantiradi. Shuni ta’kidlash kerakki, aksiz solig‘i byudjetini to‘ldirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan muhim soliq hisoblanadi.

Samarali va barqaror soliq tizimini shakllantirish, byudjetlarning mutanosib emasligi va taqchillikning kuchayishi sharoitida aksiz solig‘i tizimidagi muammolarni va uni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlarini o‘rganishga tobora ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda ushbu masalalarni ko‘rib chiqish aksiz to‘lanadigan tovarlar ro‘yxati, stavkalari chegaralanishi va ularni hisoblash tartibi, shuningdek, davlat byudjetini shakllantirish va to‘ldirishda ularni asosan tarkibida alkogolli mahsulotlar va neft mahsulotlari uchun to‘lashda nazarda tutilgan bo‘lib, bu ko‘rib chiqishda qo‘shimcha qiyinchiliklar tun’dirmoqda.

O‘zbekistonda alkogol mahsulotlariga oid nazorat va iqtisodiy siyosatni takomillashtirish bo‘yicha bir qator muhim tashabbuslar va qonunchilik o‘zgarishlari amalga oshirilyapti. Bu choralar asosan salomatlikni muhofaza qilish, bozorni tartibga solish, soliq siyosatini yaxshilash va noqonuniy aylanishni oldini olishga qaratilgan.

Aksiz solig‘i bo‘yicha bir qator xorijiy olimlar tomonidan jumladan, S.Delipalla, Michael Keen, Terry Barker & Jonathan Köhler, Philip J. Cook, Bruno S.Frey, Sijbren Cnossen, M.Kashirina, B.Tashpolatova, G.Semenova, A.Karyakin, D.A.But-Gusaim, L.Tararishkina mahalliy tadqiqotchi olimlarimizdan A.Abdurashidov, Z.Kurbanov, S.Eshmatov, U.Maxmadustov, N.Ernazarov, O.Shodiyev, S.Shirinov kabi bir qator olimlarimiz ham aksiz solig‘i bo‘yicha masalalarni o‘z ilmiy tadqiqot ishlarida oshirib borishgan.

Niderlandiyalik iqtisodchi Sijbren Cnossen aksiz solig‘i va umumiy iste’mol soliqlari (excise and consumption taxes) bo‘yicha xalqaro tahlillar, soliq tizimlari va siyosatni tadqiq qilgan. Uning ilmiy ishlari aksiz ta’minoti, soliq darajalari va davlat moliyasi bilan bon’liq kontseptsiyalarini ochib beradi[1].

O.Tegetaeva o‘zining ilmiy izlanishlarida, “aksiz solig‘i egri soliq tarkibiga kirsada, hozirda uning asosiy ahamiyati aholi ijtimoiy iste’molining holati va

istiqbolini baholash mezoni ekanligidadir”[2].

N.Juralov o‘zining ilmiy izlanishlari natijasida quyidagi xulosaga kelgan: “Aksiz solig‘ini hisoblash va tahlil qilishning nazariy asoslari ko‘p qirrali bo‘lib, iqtisodiy, ijtimoiy va xulq-atvorning kengroq o‘lchovlarini qamrab olish uchun oddiy moliyaviy mulohazalar doirasidan tashqariga chiqadi. Ushbu soliqlarning murakkabligi daromadlarni ishlab chiqarishni siyosat maqsadlariva bozor ta’siri bilan muvozanatlashtiradigan nozik yondashuvni talab qiladi”[3].

Shuni alohida ta’kidlash joizki, mamlakatimizda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida aksizosti tovarlarni soliqqa tortish amaliyoti hamda aksiz solig‘i ma’muriyatchiligi mavzusi juda kam o‘rganilgan.

Aksiz solig‘i - bu iqtisodiyotga va jamiyat faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadigan muayyan tovarlar va xizmatlarni sotish yoki ishlab chiqarish uchun olinadigan soliq. Odatda, bu soliqlar ishlab chiqarish, sotish yoki import qilish vaqtida olinadi.

Aksiz solig‘i ko‘pincha tamaki, alkogol, benzin kabi mahsulotlarga haddan tashqari foydalanishning oldini olish va oldini olish yoki atrof-muhit ifloslanishini bartaraf etish uchun qo‘yiladi. Keyinchalik bu turdagi soliqlar davlat dasturlarini moliyalashtirish, shuningdek, sog‘liqni saqlash, ta’lim va infratuzilma kabi muhim xizmatlarni moliyalashtirish uchun ishlatiladi.

Aksiz osti tovarlar uchun aksiz solig‘i stavkasi O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 289^{1}, 289^{2}, 289^{3} moddalari[4] bilan tartibga solinadi (1-jadval).

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “Soliq va byudjet siyosatining 2026-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-1108-son qonuni[5] bilan O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Quyida taqdim etilgan 1-jadvalda alkogol mahsulotlari bo‘yicha aksiz soliq stavkalarining 2026-yil davomida bosqichma-bosqich o‘zgarishi aks etgan. Jumladan, oziq-ovqat xom ashyosidan olingan etil spirti import qilinganda ham, mahalliy ishlab chiqarilganda ham aksiz solig‘i stavkasi 15000 so‘m darajasida belgilangan. Bu holat davlat tomonidan ichki ishlab chiqaruvchilar va tashqi etkazib beruvchilarga nisbatan neytral soliq munosabati bo‘layotganligini anglatadi. Etil spirtining boshlann’ich fraktsiyasi import qilinayotgan va mahalliy ishlab chiqarish uchun aksiz stavka 5 000 so‘m etib belgilangan. Bu mahsulot turi asosan texnik maqsadlarda ishlatilishi sababli, unga nisbatan aksiz solig‘i yuki past darajada saqlangan.

Kuchli alkogol mahsulotlari (aroq, konyak va boshqalar) mahsulotlari bo‘yicha import mahsulotlariga nisbatan yuqori stavka qo‘llanilishi ichki ishlab chiqaruvchi tadbirkorlarni himoya qilish siyosatiga mos keladi. 2026-yilning ikkinchi yarmiga kelib aksiz solig‘i stavkalari tenglashtirilishi bozorda raqobatni muvozanatlashtirish maqsadini ko‘rsatadi.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida 2026-yil uchun alkogol mahsulotlariga nisbatan aksiz solig‘i stavkalari

№	Alkogol mahsulotlari turlari	Soliq stavkalari (1 litr uchun)		
		01.01.2026	01.02.2026	01.07.2026
1.	**Oziq-ovqat xom ashyosidan rektifikatsiyalangan etil spirti, rektifikatsiyalangan va efiroaldegidli fraksiyadan texnik etil spirti, shuningdek don distillyati**			
	import qilinganda	15 000 so‘m		
	ishlab chiqariladigan	15 000 so‘m		
2.	**Etil spirtining boshlang‘ich fraksiyasi (bundan texnik spirtni olish uchun sarflangan etil spirtining boshlang‘ich fraksiyasi mustasno)**			
	import qilinganda	5 000 so‘m		
	ishlab chiqariladigan	5 000 so‘m		
3.	**Aroq, konyak va boshqa alkogol mahsulotlari (aksiz to‘lanadigan tovar tarkibidagi suvsiz etil spirtining 1 litri uchun, bundan 4 va 5-bandlar mustasno)**			
	import qilinganda	76 000 so‘m	60 000 so‘m	48 000 so‘m
	ishlab chiqariladigan	44 000 so‘m	48 000 so‘m	48 000 so‘m
4.	**Vino:**			
	tabiiy ravishda achitilgan tabiiy vinolar (etil spirti qo‘shilmagan holda)			
	import qilinganda	14 000 so‘m	12 000 so‘m	10 000 so‘m
	ishlab chiqariladigan	5 000 so‘m	7 000 so‘m	10 000 so‘m
	boshqa vinolar, shu jumladan vermut			
	import qilinganda	20 000 so‘m	15 000 so‘m	12 000 so‘m
	ishlab chiqariladigan	6 000 so‘m	9 000 so‘m	12 000 so‘m
5.	**Pivo**			
	import qilinganda	6 000 so‘m	5 000 so‘m	4 000 so‘m
	ishlab chiqariladigan	2 000 so‘m	3 000 so‘m	4 000 so‘m

Tabiiy vinolarga nisbatan soliq yukining kamayishi kam alkogolli ichimliklarni ran’batlantirish siyosati bilan bon’liq. Mahalliy vinolar uchun stavkaning bosqichma-bosqich oshishi soliq bazasini kengaytirishga xizmat qiladi.

Soliq stavkalarining bosqichma-bosqich o‘zgarishi – inflyatsiya, bozor moslashuvi va ishlab chiqaruvchilar manfaatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilmoqda.

2026-yil aprelidan soliq stavkalari bir xil proportsiyada oshirilishi, bu soliq siyosatining tizimli ekanini ko‘rsatadi. Bu esa davlat byudjeti daromadlarini oshirish va energiya resurslarini tejash maqsadlari ko‘zlangan.

Aksiz solig‘i O‘zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalangan byudjeti uchun muhim daromad manbai bo‘lib, u iqtisodiyotga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa qilishimiz mumkinki, aksiz solig‘i - bu hukumat tomonidan ma’lum tovarlar (alkogol, tamaki, yoqiln’i, avtomobillar va insonlarning boshqa ikkilamchi ehtiyojlari) sotishdan olinadigan bilvosita soliq ekan.

Soliq stavkalarining bosqichma-bosqich o‘zgarishi - inflyatsiya, bozor moslashuvi va ishlab chiqaruvchilar manfaatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilmoqda. Aksiz solig‘i ulushi tartibga soluvchi va fiskal funktsiyalar o‘rtasida muvozanat izlanayotganini anglatadi.

O‘zbekistonda alkogol mahsulotlari bo‘yicha ishlarni tartibga solish, bozorni nazorat qilish va jamiyat salomatligini muhofaza qilish uchun tizimli qadamlar olib borilmoqda. Bu choralar litsenziyalash, raqamlashtirish, aksiz siyosati, bozor nazorati va yoshlar himoyasi kabi yo‘nalishlarni o‘zida birlashtiradi - mamlakatda bozorning shaffof va samarali faoliyatini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://www.bsfrey.ch/wp-content/uploads/2021/08/excise-taxes-economics-politics-and-psychology.pdf?utm_source

2.Тегетаева О.Р. (2016) К проблемам реформы акцизного налогообложения. // Налоговый менеджмент. № 6. С. 23-27.

3.Juralov N. Aksiz solig‘i hisobi va tahlilining nazariy asoslari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2024 yil, mart. 270-277 betlar.

4.O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. 2026.

5.O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “Soliq va byudjet siyosatining 2026-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi mun*osabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-1108-son qonuni.

Eshbekova Xayriniso Baxtiyorovna - Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tayanch doktoranti. **e-mail:** example@mail.com

SOG‘LIQNI SAQLASH XIZMATLARI SOHASIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada innovatsion iqtisodiyot sharoitida sog‘liqni saqlash xizmatlari sifatini oshirish orqali iqtisodiy samaradorlikni ta’minlash mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Sog‘liqni saqlash tizimida xizmatlar sifati va iqtisodiy samaradorlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik nazariy va amaliy jihatdan o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida raqamli texnologiyalar, tibbiy xizmatlarni boshqarish, sog‘liqni saqlash infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda innovatsion boshqaruv mexanizmlarining roli yoritildi. O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimi bo‘yicha statistik ma’lumotlar tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida sog‘liqni saqlash xizmatlari sifatini oshirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishning samarali mexanizmlari ishlab chiqildi.*

Kalit so‘zlar: *sog‘liqni saqlash, xizmatlar sifati, iqtisodiy samaradorlik, innovatsion iqtisodiyot, tibbiy xizmatlar, raqamlashtirish, menejment.*

Аннотация. *В статье исследуются механизмы повышения экономической эффективности системы здравоохранения путем повышения качества медицинских услуг. Рассматриваются теоретические и практические аспекты взаимосвязи качества медицинских услуг и эффективности системы здравоохранения. Особое внимание уделено внедрению цифровых технологий, инновационному управлению и модернизации медицинской инфраструктуры. Проведен анализ статистических данных системы здравоохранения Узбекистана. На основе*

Shavqiyev Erkin Ulugmurodov Farxod Faxriddinovich	ELEKTRON SAVDO XIZMATLARINI INNOVATSION ASOSDA BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	682
Shavqiyev Erkin Ulugmurodov Farxod Faxriddinovich	HUDUDIY IQTISODIYOTDA ELEKTRON SAVDO XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI	685
Shavqiyev Erkin Ulugmurodov Farxod Faxriddinovich	ELEKTRON SAVDO XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI INFRATUZILMANING TA'SIRI	688
Ulugmurodov Farxod Faxriddinovich	ELEKTRON SAVDO XIZMATLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	692
Xayitboyeva Durdona Ollayor qizi Abduvoxidova Gulshan Akmalovna	CREAM STRATEGIYASIDAN SAMARALI FOYDALANISH	694
Ulugmurodov Farxod Faxriddinovich	SAMARQAND VILOYATIDA ELEKTRON SAVDO XIZMATLARI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY HOLATI VA TENDENSIYALARI	702
Ulugmurodov Farxod Faxriddinovich	O'ZBEKISTONDA ELEKTRON SAVDO XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING O'RNI	706
Adxamjonov Shoxbozbek Bobirjon o'g'li	MOLIYAVIY XIZMATLAR SOHASINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHDA ISLOMIY MOLIYA INSTRUMENTLARINING O'RNI VA ISTIQBOLLARI	709
Akmal Qudratovich Eshonqulov	KORXONALARDA NAQD PUL HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	711
Dilafruz Mardonova	O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	720
Djalilov Rahmonkul Hamidovich	RESPUBLIKAMIZDA ALKOGOL MAHSULOTLARINI HISOBGA OLISHDA AKSIZ SOLIG'I MASALALARI	724
Eshbekova Xayriniso Baxtiyorovna	SOG'LIQNI SAQLASH XIZMATLARI SOHASIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH	728